

## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLAR MUROJAATLARINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

**Mavlonov Feruz Oblakulovich**

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Tadqiqot maqsadi davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini yoritib berishdan iborat. Hozirgi davrda jamiyatida siyosiy huquq va erkinliklar kafolatining muhim mezonini aholini vakolatli davlat organlariga murojaat qilish huquqini ta'minlanganligi bilan bog'liq. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga murojaat qilish huquqi - insonning asosiy va ajralmas huquqlaridan biridir. U yoki bu jamiyatda insonning davlat organlariga murojaat qilish huquqi huquqiy jihatdan rasmiylashtirilganligi va himoya qilinganligiga asoslangan holda ushbu jamiyatning demokratlashtirilganligi darajasi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Mazkur maqolada murojaatlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida atroflicha ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** jismoniy shaxs, yuridik shaxs, murojaat, davlat organi, qonun, ariza, taklif elektron hujjalar, davlat xizmati, fuqaro

### ANNOTATION

*The purpose of the study is to shed light on the organizational and legal framework for the work of government agencies with appeals of individuals and legal entities. An important criterion for guaranteeing political rights and freedoms in society today is the right of the population to appeal to the competent state authorities. The right to appeal to public authorities and administration is one of the fundamental and inalienable human rights. The degree of democratization of a society can be*

*inferred from the fact that in this or that society a person's right to appeal to state bodies is legally formalized and protected. This article gives you a brief overview on appeals and their specifics.*

***Keywords:** individual, legal entity, application, government agency, law, application, offer electronic documents, public service, citizen*

## **Kirish**

Murojaat qilish huquqini mazmunini fuqaroning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyati, o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilish shuningdek, o'zaro bog'liq holda boshqa konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi kompleks xarakter kasb etadi. Murojaatlar har kimga davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish, o'zining fikrlari va qarashlarini bildirish, huquq va erkinliklarini himoya qilish yoki tiklash bo'yicha huquqlarini ifodalaydi. Bunda fuqarolar o'zlarining takliflari va tashabbuslari bilan murojaat qilgan holda davlat organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Fuqarolarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlanishiga oid davlat siyosati, davlat organlarining jamiyat oldidagi mas'uliyati to'g'risida fikr yuritib, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev, "davlat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ochiqlik, oshkoralikni ta'minlash zarur. Davlat organlari xalq uchun xizmat qilishi, uni oldida javobgarligi – demokratik jamiyatning bir belgisidir. Davlat – bu avvalambor mansabdor shaxs, unga ijtimoiy hayotdagi masala bilan xalqning vakili murojaat qiladigan shaxsdir. Uning eng muhim vazifasi – xalq manfaatlarini ta'minlashdir," deb ta'kidlab o'tdi.[1]

"Murojaatlar – fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish shakli" nazariyasi tarafdorlarining fikricha, murojaatning muhim jihati uning fuqaroning davlat va jamoat ishlarini hal qilishda ishtirok etish shakli, fuqaroning davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga faol ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari sifatida tavsiflanishi hisoblanadi.[2,33-b]

Yuridik matnlarda esa, “murojaat” umumlashgan tushuncha bo‘lib, fuqarolarning bevosita o‘zi murojaat etishi, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolar yig‘iniga yakka tartibdagi va jamoaviy murojaatlarni yuborishda ifodalangan konstitutsiyaviy huquqi tushuniladi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish mumkinki, murojaat qilish huquqi, uning o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan aniq va yakdil ilmiy-nazariy qarash yo‘q. Jumladan, huquqshunos olim S.B Yusupovning ta’kidlashicha, jismoniy va yuridik shaxslarni murojaat qilish huquqi shaxsning belgilangan tartibda murojaat qilishi, uning aniq vaqtida va belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishini talab qilish huquqi hisoblanadi.

Boshqa olimlar tomonidan murojaatlarga ta’rif nisbatan to‘liq bayon etilgan. Jumladan, I.E.Popov murojaat qilish huquqining ikkita jihatiga e’tibor qaratadi:

1) fuqaroning tegishli organlari va fuqarolar yig‘inlariga faoliyatiga ta’sir etish vositasi;

2) ariza va shikoyatlar berish orqali buzilgan huquqlarni qayta tiklash yo‘li.

Jahonda shaxsning murojaat qilish huquqini huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos yo‘nalishlarini belgilash va uni to‘liq amalga oshirish asosida ushbu sohani takomillashtirish va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan jismoniy shaxsning (shaxslarning) murojaat qilish huquqini ta’minlash, “aqli huquqiy tartibga solish” shakllarida axborot texnologiyalari ulushini oshirish, ko‘rib chiqishning yangi samarali mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalarni huquqiy tartibga solishni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo‘yicha davlat organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, muammolarini milliy va xalqaro miqyosda o‘rganishning alohida tizmi yartilishi lozim.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Mamlakat hududlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat ularning davlat organlariga murojaatlarni xususiyatlariga bevosita bog‘liq. Murojaatlarda ko‘tarilgan

muammolarni o'z vaqtida va sifatli hal etish fuqarolarning ehtiyojlari va talablarini qondirishga katta yordam beradi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining obro'e'tiborini oshirishga, ularning aholi bilan aloqasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish asoslari va mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tahlil etish va o'rganishdan iborat.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish va samarali ta'minlashning eng muhim shakllaridan biri bo'libgina qolmay balki uning vositadir. Ushbu murojaat qilish vositasi davlat organlari faoliyatiga, ularning qarorlari va harakatlarining mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot ishida analiz, sintez, ilmiy bashoratlash, induksiya, deduksiya, kuzatish, tarixiylik va tizimlashtirish, qiyosiy-huquqiy tahlil va ilmiy bilishning boshqa metodlaridan foydalanilgan. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaat qilish huquqini o'z tashabbuslariga ko'ra amalga oshiradilar.

## **NATIJALAR**

Murojaatni ko'rib chiqqan davlat organi murojaat etuvchiga ko'rib chiqish natijalari hamda qabul qilingan qaror haqida murojaat ko'rib chiqilganidan so'ng yozma yoxud elektron shaklda darhol xabar qilishi shart. Murojaat davlat organlari tomonidan ko'rib chiqilayotganda jismoniy va yuridik shaxs murojaat ko'rib chiqilishining borishi haqida axborot olish, shaxsan dalilarni bayon etish va tushuntirishlar berish, murojaatni tekshirish materiallari hamda uni ko'rib chiqish natijalari bilan tanishish, qo'shimcha materiallar taqdim etish yoki ularni boshqa organlardan so'rab olish to'g'risida iltimos qilish, advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Davlat organlari murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq faoliyatini ilmiy tadqiq etish bu sohadagi tipik muammolarni aniqlash va ularni guruhlashtirish imkonini beradi. Ularning quyidagi guruhlarini ko'rib chiqamiz. Murojaatlarni ko'rib

chiqishning qonun bilan belgilangan muddatlarining buzilishi bilan bog‘liq kamchilik va muammolar. Davlat organlarida murojaatlarni ko‘rib chiqish chog‘ida sansalorlik faktlari ancha keng tarqalgan .[3]

Murojaatni ko‘rib chiqayotgan davlat organlarining mansabdor shaxslari jismoniy va yuridik shaxsga ularning huquqlariga, erkinliklariga hamda qonuniy manfaatlariga daxldor hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan, agar ularda davlat sirini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma‘lumotlar mavjud bo‘lmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlariga, erkinliklariga hamda qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar etkazmasa, tanishib chiqish imkoniyatini ta‘minlashi shart.

Mazkur tadqiqot natijalari murojaatlar bilan ishlashning nazariy asoslarini rivojlantirishga, murojaatlarga oid qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi, tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligi jarayonida, huquqni qo‘llash amaliyotida, murojaatlarga oid qonunchilik normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda “Davlat va huquq nazariyasi”, “Ma‘muriy huquq”, “Konstitutsiyaviy huquq”, “Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq”, “Konstitutsiyaviy huquqning ilmiy-amaliy muammolari” fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi, shuningdek, tadqiqot natijalaridan yurisprudensiya va psixologiya yo‘nalishlarida yangi ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanish mumkin.

## MUHOKAMA

Davlat organiga kelib tushgan murojaatlar davlat organining ish yurituviga qabul qilinishi, bo‘ysunish tartibida davlat organining quyi bo‘linmasiga (tashkilotga) (keyingi o‘rinlarda quyi organ deb ataladi) yuborilishi yoki tegishli- ligi bo‘yicha boshqa davlat organiga yuborilishi mumkin. Qo‘yilgan masalalarni hal etish o‘zining vakolati doirasiga kirmaydigan davlat organiga kelib tushgan murojaatlar besh kun muddatdan kechiktirmay davlat organining rahbari yoki tarkibiy bo‘linmaning rahbari

tomonidan imzolangan xat bilan tegishli organlarga yuboriladi, bu haqda murojaat qiluvchiga yozma yoxud elektron shaklda xabar qilinadi. Agar murojaatlarda ularni tegishli organlarga yuborish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, u holda ular besh kun oldin kechiktirmay asoslantirilgan tushuntirish bilan murojaat qiluvchilarga qaytariladi. Quyi organ tomonidan ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan murojaatlar unga kelib tushgan kundan boshlab besh kun muddatdan kechiktirmay xat bilan yoki davlat organining rahbari yoki tarkibiy bo'linmaning rahbari tomonidan imzolangan topshiriq bilan birga yuborilishi, bu haqda murojaat qiluvchiga yozma yoxud elektron shaklda xabar berilishi kerak.

Murojaatlar fuqarolarning huquqlarini amalga oshirish va muhofaza qilish, aholining davlat apparati bilan munosabatlarni mustahkamlash, fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishi, davlat hokimiyati organlari va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, byurokratiya va sarsongarchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning ariza, taklif va shikoyatlarining davlat apparatiga kelib tushishi, davlatda qonuniylikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.[4, 19-b]

Jismoniy yoki yuridik shaxsning arizasi shungdek, shikoyati shu murojaat bo'yicha qonunga zid qaror qabul qilgan davlat organi tomonidan qanoatlantirilgan taqdirda, ariza yoki shikoyat berish va uni ko'rib chiqish bilan bog'liq zararining xarajatlarning hamda ana shu vaqt ichida yo'qotilgan ish haqining o'rnini murojaat qilgan shaxsga sud tartibida qoplanadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini davlat organlarining ishonch telefonlariga "sms-xabar", pochtaga elektron shaklda real vaqt holatiga yo'llanishi tizimini yaratish, uni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu tizim arizachilarga ularning turar joyidan, bo'lib turgan joyidan qat'iy nazar davlat organiga tezkor tarzda murojaatni yo'llashni ta'minlovchi axborot texnologiyalarini joriy etish imkonini yaratadi. Barcha kelib tushayotgan murojaatlarni saqlashni, ularni ko'rib chiqilganligi natijalarini, yuborilgan javoblarni saqlab qo'yuvchi elektron arxivni joriy etish muayyan samara beradi.[4]

## XULOSA

Biz yuqorida keltirgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar, olimlarni qarashlari, nazariyalardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari ularning eng muhim konstitutsiyaviy huquqlaridan biri hisoblandi. Murojaat qilish huquqi har bir shaxsning muhim huquqi hisoblanib, tizimlashtirilgan huquqlar tizimining siyosiy huquqlar turiga mansubdir. Murojaat kelib tushgandan so‘ng mansabdor shaxs tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi lozim. Shuningdek, Konstitutsiyamizga asosan har bir shaxs o‘zining huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqining kafolatlanishi maxsus qonunda va boshqa ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. O‘zbekiston ovozi, 2016-yil 15-dekabr, 150(32.209)-son1
2. Румянцев В.Г., Им В.В. Институт обращений граждан в органы государственной и местной власти: понятие, сущность, содержание. // История государства и права. – 2008. – № 14. – С. 2.
3. Yusupov. S.B Davlat organlarining yuridik va jismoniy shaxs murojaatlari bilan ishlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yuridik fan. falsafa doktori dis.: 12.00.02 120-b
4. Olim Fayziyev. “Murojaatlar” tushunchasiga ilmiy yondashuvlar va uning o‘ziga xos belgilari. demokratlashtirish va inson huquqlari «demokratlashtirish va inson huquqlari» 1 (85) – 2020 ilmiy-ma’rifiy jurnal 1 (85) –2020.39-b